

NAVOIY SIYMOSI - FARG'ONA SAHNASIDA

Charos Xamidulla qizi Raximova

charosraximova961@gmail.ru

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy dramatik asarlarning yangicha talqin qilish tendensiyalari tahlil qilinadi. Farg'ona viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan "Navoiy va Boyqaro" spektakli orqali ijodiy jamoaning repertuar shakllantirishdagi tarixiy reallik va badiiy to'qimaning hamohang tarzda sahnalashtirishdagi izlanishlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarixiy drama, rejissor, ijodiy jamoa, spektakl, aktyor, obraz, kolliziya, xarakter, tarixiy fakt

CHARACTER OF NAVOY - ON THE STAGE OF FERGANA

Charos Xamidulla kizi Raximova

charosraximova961@gmail.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article analyzes new interpretive trends in historical dramatic works. Through the performance "Christmas and Boyqaro", staged at the Fergana regional musical drama theater, the historical realism in the formation of the repertoire of the creative team and the research of the artistic fabric in a harmonious way are analyzed.

Keywords: historical drama, director, creative team, performance, actor, image, collision, character, historical fact

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq, ijtimoiy-siyosiy hayot doirasida jamiyat a'zolarining dunyoqarashlari, muayyan siyosiy-mafkuraviy qarashlar ham o'zgardi. Istiqloлга erishgan yurtimiz hayotida yuz bergan tezkor o'zgarishlardan oziqlanayotgan o'zbek dramaturgiyasi jiddiy yuksalish yo'liga qadam qo'ydi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha teatrlar qatori, Farg'ona viloyatidagi teatrlar rahbariyati va ijodiy kuchlari oldida istiqloлning buyuk mohiyati, yurtimiz tarixi, milliy tiklanishi, ijtimoiy muammolar, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi haqida sahnaviy asarlar yaratish mas'uliyati turar edi.

O'zbek tarixiy dramalarining aksariyatini tarixiy-biografik mazmun tashkil qilishi ma'lum. Farg'ona viloyat musiqali drama teatri repertuarida ham bunday mavzudagi sahna asarlari, jumladan, "Navoiy va Boyqaro", "Ahmad Farg'oniy",

“Furqat” va boshqalar xalq - tomoshabin hamda teatr san’ati muxlislarining, ayniqsa, yoshlarimizning buyuk o‘tmishga, jamiyat va xalq hayotida muhim o‘rin tutgan shaxslar hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlari natijasi o‘laroq dunyoga keladi. Ma’lum bir shaxs hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bunday sahna asarlarining o‘ziga xosligi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘unligiga asoslanadi.[1, 64-b.] Bu turdagi sahnaviy asarlari yaratishning o‘ziga xos qulayliklari bo‘lishi bilan birga, qator qiyinchiliklari ham mavjud. O‘zbek dramaturgiyasida yaratilgan tarixiy mavzudagi dramalarning aksariyati tarixiy-biografik turga mansub bo‘lgani sabab, bu dramalarning tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima darajasi, ularning tarixiy prototipga muvofiqligi, xarakterlarning o‘z asliga mosligi muhimdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, 2019-yilda O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, serqirra adib Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” dramasi tarixiy haqiqatga to‘g‘ri keladi. Mazkur dramada ulug‘ shoir, davlat arbobi va Alisher Navoiy hamda buyuk temuriyzoda hukmdor, shoir va ma’rifat ahlining homiysi - Sulton Husayn Mirzo obrazlari butun murakkabligi, davr ziddiyatlar tafsilotlari hamda saroydagi ichki kurashlar fonida mahorat bilan ko‘rsatilgan.

Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” she’riy dramasi dastlab Farg‘ona viloyat musiqali drama teatrida, so‘ngroq poytaxtdagi O‘zbek Milliy akademik drama teatrida ham namoyish yetildi. 2021-yildan esa, Qozog‘iston Respublikasidagi o‘zbek drama teatri sahnasida ijro etib kelinmoqda.

Adib uzoq yillik izlanishlar samarasi o‘laroq, buyuk siymolar - Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaroning chinakam do‘stligini tarannum etgan, tarixiy adolatni tiklashga qaratilgan yangicha talqindagi dramatik asarini yaratdi.

Avvalo, dramatik asar haqida adabiy mulohazalarimizni aytib o‘tsak. Ma’lumki, dramatik asarda qahramon xarakterini harakatda ochish san’ati bo‘yicha teatr ijrochiligida o‘ziga xos adabiy maktab yaratilgan. Bu maktab qanchadan qancha san’atkorlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi, yetkazmoqda hamda ijodiy cho‘qqilarga ruhlantirib kelmoqda. Mazmuniy jihatdan baquvvat bo‘lgan dramatik asar chinakam sahnaviy ijroda tomoshabin e’tiborini qozonib, e’tiroflarga sabab bo‘la oladi. Bu yo‘lda rejissura, musiqiy izlanishlar, sahnaviy mahoratdan tortib, sahnaorti faoliyati kabi murakkab jarayon bosib o‘tilishi muqarrar jarayon sanaladi. Sir emaski, tarixiy mavzudagi spektakldagi eng muhim jihatlardan biri - qahramonlar xarakterini plastika - harakatda ochish hisoblanadi. Har bir ijodkor, tarixga zamonamiz tendensiyalari nuqtayi nazaridan yondashib, uni davrimiz xizmatiga bo‘ysundirishga urinishi tabiiy ehtiyoj sanaladi.

O‘zbek teatrlari sahnasida uzoq yillar mobaynida Izzat Sulton va Uyg‘unning “Navoiy” dramasi asosida sahnaga olib chiqilgan spektakldan keyin Navoiy badiiy timsoli teatr sahnasida ifodalanmagan edi. Teatr san’atidagi mana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida, Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” tarixiy dramasi

yaratilib, unda hazrat Navoiy timsolining badiiy talqini muallif uslubiga xos va betakror tarzda aks etgan. Mazkur dramatik asarning yaratilishini davr ehtiyoji, madaniy hayot talabi, aytish mumkinki, tashnalik bilan uzoq kutilgan adabiy hodisa deb e'tirof etish mumkin.

“Navoiy va Boyqaro” she'riy dramasi mazmunan o'ziga xos: unda bugunga qadar bosh mavzuga olib chiqilmagan bir tarixiy haqiqat - temuriylar saltanatining umidi, kelajagi sanalgan oqil shahzoda Mo'min Mirzoning saroy fitnalari oqibatida qatl etilishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu fojia butun umidini Mo'min Mirzoga bog'lagan Navoiyni qattiq larzaga solishi, shoirning Sulton Husayn bilan bolalik chog'laridan boshlangan do'stligi, bu do'stlikka sadoqatni toat-ibodat maqomida deb bilgan shoirning shohga munosabati qanday kechishi, valiahd Badiuzzamon bilan nevara o'limida aybsiz aybdor bo'lib qolgan qiblagoh va farzand o'rtasidagi munosabatlar keskin dramatik holatlar orqali ochib berilgan. Mana shunday ziddiyatli voqealar asnosida spektakl ijodkorlari buyuk do'stlik taqdiri hal bo'layotgan jarayonlarda Hazrat Navoiyning ulug'vor siymosi, do'stlik qudratini yangicha talqinda gavalantirishga muvaffaq bo'lgan.

Asarni taniqli rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi Marat Azimov sahnalashtirdi. Tajribali rejissyor Marat Azimov muallif mahorati va Farg'ona teatri aktyorlarining izlanishi, intilishi, ijodiy imkoniyatlarini muvofiqlashtirib, spektakl muvafaqqiyatini ta'minlagan. Navoiy siymosini yaratgan A.Qirg'izboyev, Boyqaro (T.Qosimov), Xadichabegim (M.Rahimova), Nizomulmulk (K.Sobirov), Ofoq (D.Mirzayeva) larning sahna ijrolari tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, XX asrda Navoiyning sahnaviy qiyofasini yaratish sinfiy mohiyat kasb etgani ma'lum. Bu holat teatr san'ati sohasiga ham muayyan tarzda o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Mustaqillik yillarida buyuk siymolarning sahnaviy qiyofasini yaratish o'zgacha talqinda - tarixiy hujjatlar hamda real memuar faktlarga tayanilgan holda amalga oshirildi. Qolaversa, jamiyat a'zolari ongidagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar ham buyuk allomalar va mutafakkirlar qiyofasida sinfiy mohiyatni emas, real tarixiy shaxsni tasavvur qilishni taqozo etardi.[2, 18-b.] Alisher Navoiyning sahnadagi qiyofasini yaratish masalasi borasida, ijodiy izlanishdagi mana shu aniqlik va xolislik tamoyilidan Muhammad Alining “Navoiy va Boyqaro” dramasi ham mustasno yemas. Zotan, dramadagi Sulton Husayn Boyqaro hamda Mir Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarga munosabat ham mutlaqo o'zgacha mohiyat kasb etishi, ayni shu ma'noda, avvalgi davrdagidan tubdan farq qiladi. Zero, bu davrga kelib Navoiyning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari asl holicha talqin etila boshlandi. Murakkab syujetga asoslangan ushbu tarixiy drama asosida sahnalashtirilgan spektakl ham, Navoiyning “adl-u insof mamlakati” va uni boshqarish doirasidagi siyosiy-falsafiy,

umumbashariy qarashlarining mantiqiy yakuni bo'lib, uning keng ko'lamli umumlashmalari, murakkab obrazlari sahna san'atiga yangiliklar olib kelishi muqarrar edi. Demak, "Navoiy va Boyqaro" spektaklining dunyoga kelishi o'zbek teatr san'atida katta o'zgarishlar davri boshlanganidan darak bergan, desak, aslo xato bo'lmas.

Spektaklni tomosha qilish asnosida har bir ko'rinish, har bir epizodda tarixiy faktlarni ko'rish mumkin. Voqealar rivojida Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro munosabatlarida buyuk tarixchilar - Xondamirning "Makorim ul-axloq", Mirxondning "Ravzat us-safo", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye", Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur "Boburnomasi"dagi tarixiy haqiqatning sahnaviy qiyofasini uqib olish qiyin emas. Mazkur sahna asarining o'ziga xosligi, ishonarliligi hamda tomoshabinga yuqimlilik sabablari ham ana shundandir.

Spektakl uch perda, to'qqiz ko'rinishdan iborat bo'lib, har bir ko'rinishdagi voqealar tarixiy faktlar asosiga qurilganligi bilan alohida xarakterlanadi. Rejissyor talqinida mana shu tarixiy haqiqat tomoshabinga yetarli darajada bo'rttirilgan tarzda yetkazib beriladi. Jumladan, spektakl epilogidagi dastlabki ko'rinishda Husayn Mirzo va Alisherning o'smirlik davri gavalantiriladi. Unda ustoz Lutfiy huzuriga borayotgan ikki o'smir suhbat - biri qilichni, ikkinchisi qalamni kuch manbayi sifatida tanlashi vositasida, dunyo tarixiga buyuk temuriyzoda hukmdor hamda ulug' mutafakkir kirib kelayotganiga ishora qiladi. Spektaklning mana shu ko'rinishidanoq, sahna asarining butun mazmun-mohiyatini - siyosat va fitnalar girdobida ham mangu buzilmas do'stlikning ibratli lavhalariga bo'lgan ishora - sahnaviy manzaralar vositasida ifodalab beradi.

Spektaklda insoniyat paydo bo'lgandan beri yonma-yon kelayotgan ezgulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va jazo singari sifatlar o'rtasidagi kurash Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi mansabdor shaxslarning manfur fitnalari vositasida tasvirlangan. Navoiy siymosi, barcha tarixiy hujjatlarda yozilganidek, har jihatdan yetuk, inson degan mukarram nomga munosib suratda yaratilgan. Butun e'tiqodi va dunyoviy qarashi bilan ezgulikka intilgan ikki do'st va hokimiyatga erishish yo'lida har qanday yovuzlik va fitnalardan qaytmaydigan amalparast va mol-dunyoga mukkasidan ketgan ochko'z amaldorlar taqdirining o'zaro kesishgan nuqtalari har bir ko'rinishda muayyan masaladagi to'qnashuv, kolliziyalar hamda yechimlarda istifoda etiladi. Spektakldagi yovuz kuchlar - vazir Nizomulmulk (K.Sobirov), Husayn Boyqaroning suyuqli xotini Xadichabegim (M.Rahimova), Xadichabegimning o'g'li shahzoda Muzaffar Mirzo (Q.Toshpo'latov) kabilarning saltanat ishtiyoqidek nafs va manfaatlari yo'lidagi chirkin fitnalariga qarama-qarshi bo'lgan Navoiy va unga xayrixoh insonlar - Boyqaro, Xondamir, Kamoliddin Behzod, Badiuzzamon, Mo'min Mirzo kabi tarixiy shaxslarning real sahnaviy qiyofalari tomoshabin ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Muallif personajlar holati va nutqini tarixiy manbalar orqali qay

tariqa asarga olib kirgan bo'lsa, rejissyor Marat Azimov ham mazkur tarixiylik tamoyilini, real shaxslar va xarakterlar salmog'ini bir butunlikda saqlagan holda sahnaga olib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Navoiy obrazining sahnaviy talqini iste'dodli aktyor Adham Qirg'izboyev tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Pirovardida, tomoshabinga tarixiy haqiqatning jonli manzarasi namoyish etilishiga to'laqonli tarzda erishilgan.

Spektakl ko'rinishlarida qadam-baqadam xiyonat va sadoqat manzaralari galma-gam tarzda almashinadi. Binobarin, birinchi ko'rinishda ikki ajralmas do'stning samimiy muloqoti natijasi o'laroq, ikkinchi ko'rinishdagi ma'rifatparvar hukmdor va buyuk mutafakkirning yillar osha sinovlardan o'tib toblangan do'stona muhabbat lavhalari, buyuk ma'naviy xazina - "Besh ganj" hisoblanmish "Xamsa" taqdimoti aks etgan lavhalar o'ta hayajonli tarzda ijroga olib chiqilgan. Spektakl voqealari zanjirida ana shunday go'zal voqealar keyinida yovuz shaxslar qilmishlari ham yoritilib, kolliziyalar tomoshabin nigohida, taranglashib, murosasiz kurash girdobiga tortilib boradi. Aynan shu ko'rinish so'ngida vazir Nizomulmulkning Sulton Husayn (T.Qosimov) huzuriga fitna - Badiuzzamonning Hirotga yurishi haqidagi yolg'on xabarni olib kelishi bilan bog'lanib ketadi.

Manfaatparastlik, xudbinlik shunday illatki, unga yo'liqqan kimsa o'zgalarga zug'um qilmasligi, zarar yetkazmasligi mumkin emas. Sulton Husaynning munofiq, shuhratparast, "beaql va sergap" ayoli Xadichabegim fitnasi oqibatida saroydan chetlashtirilgan Poyanda Sultonbegimning o'g'li valiahd Badiuzzamon Mirzo (A.Temirov) bu haqoratga chiday olmaydi. Nizomulmulk va Xadichabegim sochgan fitna urug'i valiahd qalbida bo'y ko'rsata boshlagan bir paytda, Hazrat Alisher Navoiy bilan uchrashuvdan so'ng padari buzrukvori haqidagi qarashlari yaxshi tomonga o'zgarishi, Xurosonda tinchlikning saqlanib qolinishi g'oyat ishonarli va ta'sirchan ifodalangan. Ammo, manfaatparastlik shunday kasallikki, istaklar qondirilgani sayin hokimiyat ishtiyoqi bo'lmish nafsiy talablar ortib boraveradi. Shu bois spektakl voqealari rivojida yovuz niyatli Xadichabegimga o'g'li Muzaffar Mirzoga Astrobod hokimligi berilishining o'zi kamlik qiladi. U endilikda zamonaning barcha ulug'lari e'tirofiga sazovor bo'lgan Mo'min Mirzo (A.Ahmedov) ni mutlaqo tarix sahnasidan olib tashlashga urinadi va bunga erishadi ham. Hayot haqiqatidan ma'lumki, hech bir yomonlik hech qachon yolg'iz yurmaydi. Biri boshqasini keltirib chiqaradi, biri ikkinchisini boshlab keladi. Faqat saroyni yemas, balki butun mamlakatni qamrab olgan izohsiz besaranjomlik, tushunarsiz holat va Navoiy qalbini o'rtagan alamlar, tuganmas nadomatning sababi - shu. Xadichabegim o'zining mash'um maqsadini Nizomulmulk yordamida amalga oshiradi va temuriylarning munosib vorisi, buyuk davlatchilikning munosib davomchisi Mo'min Mirzo hayotiga nuqta qo'yiladi. Mazkur tarixiy haqiqat sahnada yana bir badiiy

to'qimaga uyg'unlashtirilgan holda namoyon etilganki, bu o'rinda tarixiy faktlar va sahnaviy ijro orasidagi mutanosib jihatlarni muqoyasa qilish maqsadga muvofiqdir.

Tarixdan ma'lumki, Mo'min Mirzoning o'limi fojiasi 1497-yilning sentabrida yuz bergan edi. Xondamirning yozishicha, "Mo'min Mirzo o'ldirilgan vaqtda Alisher Navoiy Mashhadda edi. Hirotga qaytgach, Mo'min Mirzoning o'ldirilganini eshitib, juda qattiq iztirobga tushdi, ko'zlaridan yosh o'rniga qon to'kib yig'ladi. O'sha kunlari men hazratning og'zidan "Bir vaqtlar Shayx Majididdin Bag'dodiyning o'ldirilishi oqibatida Chingiz qo'shinlarining hujumidan Movarounnahr, Xuroson va Iroqda qanday qirg'in bo'lgan bo'lsa, Mo'min Mirzoning o'ldirilishi oqibati ham shunday bo'lajak", deganini bir necha marotaba eshitgandim". [3, 125]

Yuqoridagi tarixiy ma'lumot mazmunidan unumli oziqlanish natijasi o'laroq, aytish mumkinki, Navoiy so'zlari muallif tomonidan bayon etilar ekan, buyuk mutafakkir iztiroblari ortida urush, qirg'inbarotlik xavfini oldindan sezayotgan xavotirni ilg'ab olish qiyin yemas.

Ayni shu o'rinda aktyor Adham Qirg'izboyev talqinidagi Navoiy roli talqini borasidagi mulohazalar yuritish o'rinlidir. Spektakldagi Mo'min Mirzo fojiasiga Navoiy munosabati ifodalangan ko'rinishda, buyuk mutafakkirning butun dardi, iztiroblari, ayni chog'da, do'stlik degan buyuk insoniy qadriyat oldidagi burch va mas'uliyatidek buyuk dard tomoshabinga ham yuqtiriladi. Mana shu jihati bilan tarixiy dramaning o'ziga xos yana bir tarbiyaviy qimmatini sahnada gavdalantirib beriladi. Mazkur dramatik holatda Navoiy monologi iste'dodli aktyor Adham Qirg'izboyev ijrosida o'ta ta'sirchan tarzda tomoshabinga uzatilishi tahsinga sazovordir. Aktyor talqinidagi ushbu sahnaviy ijro talqini an'anaviylik va novatorlik uslublarining uyg'unligi asosida amalga oshirilgan. Ya'ni, teatrdagi ijroviy talqin an'anaviyligiga ko'ra, so'z asosiga qurilgan monolog ijrosi Adham Qirg'izboyev talqinida aralash uslubda amalga oshiriladi. Bunda Navoiy monologidagi ta'sirchan ifodalilik bilan birga, aktyor ovoqidagi dard, holat, xatti-harakatlar, yuz ifodalari bilan uyg'unlikda o'ziga xos talqinni namoyon etar ekan, iste'dodli aktyor ijrosida ko'zdagi yoshlar, adil qomatli vazirning bir kundayoq qaddi bukchayib qolishi, chorasiz, ayni paytda o'ta ojizona qiyofa, shuningdek, zalolat va jaholatga ochiq nafratga to'la ovoz tonlari sahnaviy asarning ta'sir kuchini tomoshabinga to'laqonli yuqtira olgani bilan ahamiyatlidir.

Aktyor Adham Qirg'izboyev talqinidagi Navoiy qiyofasi monologning an'anaviylik ta'siri bilan faol xatti-harakatlar uyg'unligidagi ijobiy natijadir. Bu holat aktyor kasbiy tajribasidan kelib chiqilgan, an'anaviy talqinni o'zlashtirgan holda yangicha ijroviy uslub - faol xatti-harakatlar ustunligidagi yetarli meyorini qo'llay bilishining natijasidir.

Navoiy monologidagi keyingi o'rinlarga e'tibor qaratar ekanmiz, aktyor talqinidagi ohang, tomoshabin tasavvuridagi marsiyaviy faryod darajasiga ko'tarilar

ekan, bu mahzun, g'amgin kayfiyatning tomoshabinga tez "yuqtirilishi"ga so'z va harakatlar ta'sirida erishilganini kuzatish mumkin.

Spektakldagi voqealar rivoji davomida asardagi har bir personaj o'ziga xos tabiatini namoyish etadi, obrazlarning fe'l-sa'jiiyasi ularning taqdirini belgilaydigan omil bo'ladi. Har bir aktyorning o'z ijrosiga mas'uliyat bilan qarashi, asosiy rollar ijrochilaridan tortib, yordamchi - epizodik sahnalar ham esda qolarli, tomoshabin taassurotida uzoq vaqt saqlanib qoluvchi ibratli holat sifatida yashab qolishi shubhasizdir. Jumladan, spektaklning turli o'rinlarida tarixiy obrazlar - Muzaffar Mirzo (Q.Toshpo'latov), Mo'min Mirzo (A.Ahmedov), Xondamir (D.Sottiyev), Kamoliddin Behzod (F.Mamasaidov), Alisher va Husaynning bolaligi (I.Nuriddinovlar), shungdek, to'qima obrazlarni gavdalantirgan Ofoq (D.Mirzayeva), Davlatbaxt (S.Mirzayeva), Sumanso (M.Hasanova), Bobo Ali (F.Akbarov), Qozikalon (A.Mirzayev), Badaxshiy (I.Abdullayev), Munshiy (N.Aktamov)lar spektakl mazmuniga muayyan bir aniqlik kiritish yoxud bosh qahramonlar xarakterlarining yanada yorqinroq namoyon bo'lishiga yetarli darajada turtki bo'la olganligi bilan maqtovga loyiqdir.

Spektaklning to'qqizinchi ko'rinishida ham Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarida tarixiy haqiqatning sahnaviy in'ikosini yanada yorqinroq ko'rish mumkin. Mazkur ko'rinishda spektakldan ko'zlangan asosiy badiiy niyat - bu dunyoni muvozanatda tutib turgan ezgu g'oyalarni ma'naviy olamiga jo yetgan komil insonlar va ular amalga oshirgan buyuk ishlar ekani to'liq bo'y ko'rsata oladi. Sulton Husayn Mirzo tilidan aytilgan "Mening ikki saltanatim bor: biri Xuroson hukmdori ekanim, ikkinchi saltanatim, azizim Alisher, siz bilan do'stligimdir", degan so'zlari spektakl mohiyatini ochib bergan. Bu esa, Navoiy haqida shu vaqtgacha yaratilgan tarixiy dramalardan farqli o'laroq, buyuk mutafakkirning yana bir chin insoniy jihatlarini asosiy planga olib chiqildi.

Sahna dekoratsiyasi tarixiy davrga mos tarzda yaratilgani, unda iste'dodli va izlanuvchan rassom Akmal Jamoldinovning alohida mehnatini ko'rish mumkin. Har bir rol ijrochisi uchun tanlangan liboslarda (liboslar bo'yicha rassom - Sevara Zunnunova) tarixiy davr ruhi, aktyorlar nutqidagi til xususiyatlari, shuningdek, ijrodagi plastik ko'rinishlar tomoshabin ko'z o'ngida uzoq o'tmishni teran tasavvur qilishiga yetarli darajada xizmat qilgan. Qolaversa, spektakl uchun tanlangan musiqalar, qo'shiqlar Farg'ona - Toshkent maqom yo'llariga xos bo'lgan Bayot - 5 kuyiga asoslangani, shuningdek, "Munojot", "Cho'li Iroq" kuylarining fon tariqasida ijro etilishi sahna asarining yanada milliy, xalqchil mohiyat kasb etishini ta'minlab bergan.

Spektakl shu yilning o'zidayoq, poytaxt teatrida ham namoyish qilindi va keng jamoatchilik e'tiborini qozondi. Ammo yuqoridagi yutuqlar bilan bir qatorda, spektaklning ba'zi juz'iy kamchiliklarini ham aytib o'tish o'rinlidir.

Rejissyor talqini sahnaviy asarning muvaffaqiyati kalitlaridan biridir. Binobarin, rejissyor rollar uchun aktyorlar tanlar ekan, tomoshabin tasavvuridan bir necha qadam yorqinroq, aniqroq qiyofani ko‘z oldiga keltira bilishi zarur. Afsuski, spektakl premyerasi davomida birinchi va ikkinchi ko‘rinishlardagi sahnada xalq kuyining ijro etilishi tomoshabinga yosh Husayn va Alisher suhbatining to‘la-to‘kis yetkazilishiga jiddiy xalal berdi. Qolaversa, yosh Husayn Mirzo va Alisher suhbatini sahnasida, aktyorlarni tanlashda tomoshabin tasavvuridan farqli holatni kuzatish mumkin. Ya‘ni, tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Husaynmirzo Alisherdan uch yosh katta bo‘lsa-da, rejissyor yosh Alisher roliga nisbatan gavdali, bo‘y jihatidan tikroq ijrochini tanlagan. Talabchan tomoshabin sahnada o‘z tasavvuridagi qiyofani ko‘rmasa, undagi taassurot ham nisbatan salbiy bo‘lishi ehtimoldan xoli yemas. Chunonchi, mashhur “Boburnoma”da muallif tomonidan Husayn Mirzoning shakl-u shamoyili (portreti) shunday ifodalangan: “...qiyiq ko‘zluk, sherandom bo‘yluq... edi. Belidin quyi inchka edi... Shujo‘ va mardona kishi erdi. Temurbek naslidin hech kim ma‘lum ermashkim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay...”[4, 305 b.]

Rejissyor asarni sahnalashtirish jarayonida bosh rollardan tortib, qisqa muddatli epizodik ijro uchun ham aktyor tanlashda, tomoshabin oldidagi mas‘uliyatini his qilgani seziladi. Bu mas‘ullik sahna va tomoshabin o‘rtasidagi tushunmovchilikka chek qo‘yishiga ishonchimiz komil. Spektakl haqidagi umumiy xulosamiz shundan iboratki, yuqoridagi sanab o‘tilgan e‘tirozlarimizga qaramay sahnaviy ijroni ijobiy baholash mumkin.

Rejissyor talqinidan ko‘rinadiki, spektakldagi tarixiy haqiqat, Navoiy va Boyqaro shaxsini mufassal yoritish maqsadida, barcha mavzular doirasini yagona liniya atrofiga jamlay olgan. Aktyorlarning xarakter yaratish borasidagi ijodiy izlanishlariga qaramay, dramaturg g‘oyasiga mutanosib tarzda, rejissuraviy talqinda ham buyuk mutafakkir - Navoiy qiyofasi bugungi tomoshabin tasavvuriga monand tarzda gavdalantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova S. Teatrda hayot aksi. - T.: “San‘at” jurnali nashriyoti, 2011, 64 b.
2. Rahmatullayeva D. O‘zbek teatri: tarixiy drama. - T.: San‘at, 2004, 18 b
3. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018, 125 b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -Toshkent, “Yulduzcha” nashriyoti, 1989-yil. 576 b.